

## BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA GEOMETRIK SHAKLLARNI O'RGATISH MASALASI

**Abdurahmonova Mohichehra Mumin qizi**

*Shahrisabz davlat Pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darsliklaridagi geometrik shakllarni o'rganib chiqishdan keltirilgan xulosalar, bu geometrik shakllarni boshlang'ich sinflarga tanishtirish metod va tamoyillari, boshlang'ich sinfda o'rganiladigan geometrik shakllar haqida zarur ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Burchaklar, sodda geometrik shakllar, uchburchaklar, nuqta, to'g'ri chiziqlar, to'rtburchaklar.*

### THE ISSUE OF TEACHING GEOMETRIC SHAPES TO ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS.

**Abstract:** *In this article, conclusions from the study of geometric shapes in elementary school textbooks, methods and principles of introducing these geometric shapes to elementary classes, and necessary information about geometric shapes studied in elementary school are given.*

**Keywords:** *Angles, simple geometric shapes, triangles, points, straight lines, rectangles.*

### ПРОБЛЕМА ОБУЧЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ГЕОМЕТРИЧЕСКИМ ФИГУРАМ

**Абстрактный:** *В данной статье приведены выводы из изучения геометрических фигур в учебниках для начальной школы, способы и принципы введения этих геометрических фигур в начальные классы, а также необходимые сведения о геометрических фигурах, изучаемых в начальной школе.*

**Ключевые слова:** *Углы, простые геометрические фигуры, треугольники, точки, прямые, прямоугольники.*

### KIRISH

Bugungi kun vazifalaridan biri sifatida o'quvchi va o'qituvchining matematik bilim salohiyatini oshirish masalasini qo'yish mumkin. Matematika fanini o'rgatish ayniqsa boshlang'ich sinflar uchun muhimdir. Chunki bolalarning maktab fanlaridan zerikib qolishining oldini olish, uni har vaziyatda sabr- toqatli etib tarbiyalash ko'p jihatdan bu fan bilan bog'liqdir. Shu jumladan, matematika kursining muhim qismi sifatida geometriya fanini ko'rsatish mumkin. Geometriyada tekislikdagi va fazodagi jismlarni o'lchash, ularning hajmini, yuzasini va h.k larni topishga oid arifmetik amallar o'rganiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich sinflarda geometriya fani chuqur o'rgatilmasa-da, geometriyaga oid ilk qarashlar shakllanadi.

Forobiy aytganidek, „ Bolada katta imkoniyatlarga ega bo'lgan ko'ngil bor. U his-tuyg'uga, tafakkur orqali anglash xususiyatiga ega. Hissiyot va tafakkur bialn jismlar tushuniladi.[1]

Albatta, bolada ilk geometrik qarashlarni shakllantirishda pedagog o'qituvchi murakkabliklarga yo'l qo'ymasligi kerak.

Jumladan, 1-sinf matematika darsligining geometriya kursida geometrik

- shakllarni taqqoslash,
- nuqta
- to'g'ri chiziq kesmasi
- siniq chiziq va egri chiziq
- matnli masalalar
- uzunlik o'lchov birliklarida sm,
- kesma yasash
- burchak turlari
- ko'pburchaklar bilan tanishtirish kabi sodda nazariy va amaliy mavzular o'rganiladi.

Birgina ko'pburchak ta'rifiga qaraydigan bo'lsak, „ ko'pburchak burchaklari va tomonlari uchta, to'rtta, beshta va undan ortiq bo'ladi" kabi murakkab bo'lnagan so'zlar orqali tushuntiriladi.

2-sinf matematika darsining geometriya kursida esa,

- to'g'ri burchak
- ko'pburchak perimetri
- to'g'ri to'rtburchakning qarama-qarshi tomonlari xossalari
- kvadrat
- sodda va tarkibli masalalar
- harfli ifodalar kabi 1- sinfga nisbatan murakkab amaliy va nazariy masalalar

o'rganiladi.

3- sinf darsligida

- kesma va nur
- uchburchakning turlari
- ko'pburchaklarni teng bo'laklarga bo'lish
- uzunlik o'lchov birliklari orasidagi munisabatlar masalan, dm ni sm ga aylantirish

kabi

- tarkibli masalalar
- fazoviy figuralar nomi
- yuz o'lchov birliklari kv.mm
- yuzalarni taqqoslash
- vaqt

- doiraviy diagrammalar
- burchak graduslari
- piramida
- konus kabi nisbatan murakkab tarkibli masalalar o'rganiladi.

4-sinf darsligi uchun

- yassi va fazoviy shakllar
- qirqma shakllar
- buklangan ko'pburchaklar
- ko'pyoq
- nuqta koordinatasi
- to'g'ri burchakli parallelepid
- kub
- yuz o'lchov birliklari
- grafik

- simmetriyaga oid masalalar berilgan. Bu darslikda amaliy mashg'ulot darslari nisbatan ko'p.

E'tibor berilsa, sinf darsliklari davomida masalalar murakkablashib borgan. Misol uchun, 1- sinfda berilgan geometriyaga oid mavzular bo'yicha yuzaki ma'lumotlar berilgan bo'lsa, bu mavzular 2-3-4- sinflarda nisbatan murakkablashib borgan.

Muhokama va natijalar.

Boshlang'ich sinflarga geometrik shakllarni o'rgatishda ko'proq amaliy mashg'ulotlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bir mavzuga oid shakllarni tasavvur qilishda uni qalam, chizg'ich, sirkul yordamida chizish yoki qog'oz va qaychi yordamida shu shakllarni qirqib olish kabi amaliy ishlardan foydalanish mumkin. Bu usulni qo'llaganda berilgan mavzu o'quvchi yodiga ancha vaqt saqlanib qoladi va darsda o'quvchining zerikishini oldini oladi. Shu maqsadda ishlab chiqilgan yangi matematika darsliklarida ko'proq amaliy mashg'ulotlarga e'tibor berilgan.

Bundan tashqari, boshlang'ich sinflarda geometrik shakllarni o'rgatishda turli xil didaktik o'yinlardan foydalanish ham mumkin. Masalan, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat kabi shakllarni tushuntirganda „tomini yop“ didaktik o'yinidan foydalansa bo'ladi. Bu metod foydalanish natijasida uy shakli hosil bo'ladi. Bunda uyning pastki qismi sifatida to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, tom qismida esa uchburchak shakli tanlab olinadi. Bu usulda bolalar atrofidagi shakllarning qanday geometrik shaklga kirishi haqida ham bosh qotiradi. Xuddi shu usulni qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish kabi arifmetik amallar bilan bog'liq mavzularni tushuntirishda ham foydalanish mumkin. Buning natijasida esa bola arifmetik amallar mavzusini ham chuqur egallaydi. Shu va shu kabi boshqa metodlar geometrik shakllar va boshqa mavzularni bola xotirasida uzoqroq saqlanishiga xizmat qiladi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalarning matematika darslarida geometrik shakllarni mustahkam o'rganishi ularning atrof- muhitga e'tiborli bo'lishiga, atrofidagi narsalarni analiz- sintez qilishga olib keladi.

Bundan tashqari, bu mavzularni o'rgatishda turli multimediali pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Misol tariqasida, ularga turli xil multifilm qahramonlari ishtirokidagi geometrik shakllar yasashga oid multimedialar qo'yib berish ham mumkin.

Matematika fanini bola qanchalik chuqur o'rgansa, uning fikrlash doirasi ancha kengayadi, aksincha, asabiylashish holatlari kamaya boradi, o'quvchi sabr-toqat ruhida ulg'ayadi.

### REFERENCES:

1. Xayrullayeva M. Farobiy ruhiy proseslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida - T.: O'qituvchi, 2002-yil. 79-bet

2. M. Ahmedov, N. Abdurahmonova, M. Jumayev 1- sinf uchun matematika darsligi. „ Turon- Iqbol" Toshkent-2019.

3. N. Abdurahmonova, L. O'rinboyeva 2-sinf uchun matematika darsligi. Toshkent „ Yangiyo'l Poligraf servis"-2018.

4. S. Burxonov, O'. Xudoyorov, Q. Norqulova, N. Ruzikulova, L. Goibova 3- sinf uchun matematika darsligi. „ Sharq" nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent- 2019.

5. N. Bikbayeva 4- sinf uchun matematika darsligi. „ O'qituvchi" nashriyot- matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2020